

## ABDULLA QAHHORNING “ASROR BOBO” HIKOYASIDA INSON QADRI, VATANPARVARLIK VA MATONAT TALQINI

**Turobova Sayyora**

Navoiy Davlat Universiteti Tillar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20528109>

**Annotatsiya :** Mazkur maqolada Abdulla Qahhorning "Asror bobo" hikoyasi g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda inson qadri, milliy xarakter, vatanparvarlik, matonat va ma'naviy qadriyatlar masalalarining yoritilishi tadqiq etiladi. Asror bobo obrazi misolida urush yillaridagi xalq hayoti, ota-onalarning ruhiy kechinmalari hamda insonning shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishi masalalari ochib beriladi. Shuningdek, hikoyaning badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi va bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyati yuzasidan ilmiy xulosalar bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Qahhor, Asror bobo, hikoya, obraz, inson qadri, vatanparvarlik, matonat, urush mavzusi, milliy xarakter, badiiy mahorati.

**Аннотация:** В данной статье анализируется рассказ Абдуллы Каххара «Асрор бобо» с идейно-художественной точки зрения. Исследуются вопросы человеческого достоинства, национального характера, патриотизма, стойкости и духовных ценностей. На примере образа Асрор бобо раскрываются жизнь народа в годы войны, духовные переживания родителей и проблема гармонизации личных интересов с общественными. Также рассматриваются художественные особенности произведения, система образов и его воспитательное значение.

**Ключевые слова:** Абдулла Каххар, Асрор бобо, рассказ, образ, человеческое достоинство, патриотизм, стойкость, национальный характер.

**Abstract:** This article analyzes Abdullah Qahhor's story "Asror Bobo" from an ideological and artistic perspective. The study examines the issues of human dignity, national character, patriotism, resilience, and spiritual values reflected in the work. Through the image of Asror Bobo, the article reveals the life of people during wartime, the emotional experiences of parents, and the harmony between personal and social interests. The artistic features, character system, and educational significance of the story are also discussed.

**Keywords:** Abdullah Qahhor, Asror Bobo, human dignity, patriotism, resilience, national character, artistic interpretation, war theme.

XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Abdulla Qahhor o'zining hikoyachilik mahorati bilan adabiyotimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ijodkorlardan sanaladi. Adib asarlarining asosiy xususiyati hayot haqiqatini badiiy haqiqat darajasiga ko'tara olganidadir. Uning qahramonlari oddiy insonlar bo'lsa-da, ularda xalqning ruhiyati, orzu-intilishlari va ma'naviy qiyofasi mujassamlashgan. Abdulla Qahhor ijodida inson taqdiri, adolat, mehnat, vatanparvarlik, ma'naviyat va insoniy munosabatlar masalalari muhim o'rin egallaydi. Adib voqealarni sun'iy ravishda murakkablashtirmaydi, balki oddiy hayotiy holatlar orqali katta falsafiy xulosalar chiqarishga erishadi. Shu jihatdan uning "Asror bobo" hikoyasi ham yozuvchining yetuk asarlaridan biri hisoblanadi. Mazkur hikoya Ikkinchi jahon urushi yillaridagi xalq hayotini

aks ettiradi. Asarda urushning front ortidagi insonlar qalbiga qanday ta'sir ko'rsatgani, ota-onalar, oilalar va butun jamiyatning ruhiy kechinmalari mahorat bilan tasvirlangan.

"Asror bobo" hikoyasi bir qarashda oddiy qishloq hayotini tasvirlaydiganidek ko'rinsa-da, aslida uning mazmuni nihoyatda chuqurdir. Asarning markazida Asrorqul va uning oilasi taqdiri turadi. Hikoya Haydar ota xotiralari orqali boshlanadi. Muallif Asrorqulning yoshligida podsho hukumatining mardikor olish siyosatiga qarshi chiqqan jasur inson bo'lganini ko'rsatadi. Asrorqulning: "Oq poshshoning devori yiqilgan bo'lsa, o'zining yurtidan mardikor olsin, biz bormaymiz", degan so'zlari uning xarakterini ochib beruvchi muhim detaldir. Ushbu voqea qahramonning adolatparvar va qo'rqmas inson ekanligini namoyon qiladi. Asarda voqealar ketma-ketligi juda tabiiy rivojlanadi. Haydar otaning Ultarmaga borishi, Asrorqul oilasi bilan uchrashuvi, Yodgorboydan xat kelmay qolishi bilan bog'liq tashvishlar va nihoyat fojiaiy haqiqatning ochilishi asar syujetining asosini tashkil etadi. Muallif voqealarni shunday quradiki, kitobxon ham qahramonlar bilan birga xavotirlanadi, kutadi va izzitirob chekadi. Bu esa hikoyaning badiiy ta'sirchanligini yanada kuchaytiradi.

Asror bobo hikoyaning markaziy qahramoni bo'lib, u asar davomida yuksak insoniy fazilatlar egasi sifatida namoyon bo'ladi. Uning xarakteridagi eng muhim sifatlardan biri matonatdir. Asror bobo o'g'li Yodgorboyning urushga kuzatadi. Ota sifatida uni sog'inadi, uning taqdiridan xavotir oladi. Biroq u shaxsiy his-tuyg'ularini xalq manfaatidan ustun qo'ymaydi. Bu jihat ayniqsa urush yillaridagi tashviqot faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Asror bobo samovar tashkil etib, odamlarni bir joyga yig'adi. Urushdan qaytgan askarlarni taklif qilib, ularning hikoyalarini eshittiradi. Bundan ko'zlangan maqsad xalqni ruhlantirish, ularda g'alabaga ishonch uyg'otish va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashdan iborat edi. Asror boboning bu faoliyati oddiy choyxona ochish emas, balki ma'naviy-ma'rifiy vazifani bajarish edi. Shu sababli uni tuman rahbarlari ham faol targ'ibotchi sifatida e'tirof etadilar. Qahramonning eng katta sinovi esa Yodgorboyning halok bo'lgani haqidagi qora xatni olganidan keyin boshlanadi. Shunga qaramay, u oilasini, ayniqsa turmush o'rtog'ini asrash uchun o'z dardini ichiga yutadi. Bu esa Asror boboning ruhiy kuchini va iroda mustahkamligini ko'rsatadi. Demak, Asror bobo obrazi orqali yozuvchi urush yillaridagi oddiy o'zbek otasining ma'naviy qiyofasini yaratishga muvaffaq bo'lgan.

"Asror bobo" hikoyasida Haydar ota obrazi alohida ahamiyatga ega. U asardagi voqealarni bog'lab turuvchi, qahramonlar ruhiy holatini ochib beruvchi obraz sifatida namoyon bo'ladi. Muallif ko'p voqealarni aynan Haydar ota nigohi orqali tasvirlaydi. Haydar ota Asror boboning yaqin do'sti sifatida tasvirlangan. Ularning do'stligi yillar davomida turli sinovlardan o'tgan. Asrorqul podsho davrida quvg'in bo'lib yurgan paytlarida ham Haydar ota unga yordam bergan, tegirmonidan xabar olib turgan. Bu holat ikki inson o'rtasidagi sadoqat va do'stlikning yorqin namunasi hisoblanadi. Haydar ota obrazi orqali yozuvchi insoniylik, mehr-oqibat va hamdardlik kabi fazilatlarini ko'rsatadi. Ayniqsa, Yodgorboyning halok bo'lgani haqidagi xabarni eshitgandan keyin Haydar otaning ichki kechinmalari chuqur tasvirlangan. U Asror bobo va uning turmush o'rtog'ining bir-biridan yashirayotgan dardini tushunadi va ularga imkon qadar ruhiy madad berishga harakat qiladi. Shu jihatdan Haydar ota obrazi hikoyaning g'oyaviy mazmunini ochishda muhim o'rin tutadi.

Yodgorboy asarda bevosita ishtirok etmasa-da, voqealarning markazida turuvchi obrazlardan biridir. U urushga ketgan minglab o'zbek yigitlarining umumlashma timsoli sifatida tasvirlangan. Yodgorboyning frontdan yuborgan xatlari ota-onasining hayotidagi eng katta taskin manbai bo'lib xizmat qiladi. Xatlarning kelmay qolishi esa oiladagi ruhiy tanglikni kuchaytiradi. Muallif Yodgorboy obrazini urush qurbonlari timsoli sifatida talqin etadi. U nafaqat bir oilaning farzandi,

balki butun xalqning umidi va kelajagini ifodalaydi. Shu sababli uning o'limi faqat Asror bobo oilasining emas, balki jamiyatning umumiy fojiasi sifatida tasvirlanadi. Yozuvchi Yodgorboy taqdiri orqali urushning insoniyat boshiga keltirgan musibatlarini ko'rsatishga intilgan. Asarning markaziy g'oyalaridan biri inson qadri masalasidir. Abdulla Qahhor insonning haqiqiy buyukligi uning boyligi yoki mansabida emas, balki ma'naviy fazilatlarida ekanligini ta'kidlaydi. Asror bobo obrazi bunga yorqin misoldir. U oddiy tegirmonchi bo'lsa ham, xalq orasida katta hurmatga ega. Buning sababi uning halolligi, mehnatsevarligi va odamlar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ya bilishidir.

Asror bobo o'zining shaxsiy fojiasini yashirib, boshqalarga dalda berishda davom etadi. Bu esa insoniy buyuklikning eng oliy ko'rinishlaridan biri sifatida talqin etiladi. Hikoyada o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy xarakter xususiyatlari chuqur aks ettirilgan. Asror bobo va Haydar ota obrazlarida xalqimizning eng yaxshi fazilatlarini mujassamlashtirilgan. Asror bobo va uning turmush o'rtog'i o'rtasidagi munosabatlarda ham milliy ruh sezilib turadi. Ular bir-birlarini asrashga, qayg'udan himoya qilishga intiladilar. Har ikki qahramon ham o'z dardini yashirish orqali yaqin insonining ruhiy holatini o'ylaydi. Buholat o'zbek oilalariga xos mehr-muhabbat va fidoyilikning yorqin ifodasidir.

Abdulla Qahhor hikoyada badiiy tasvir vositalaridan juda mohirona foydalanadi. Birinchidan, asarda psixologik tasvir kuchli. Muallif qahramonlarning ichki kechinmalarini ortiqcha izohlarsiz, tabiiy harakatlar va dialoglar orqali ochib beradi. Ikkinchidan, detal san'ati muvaffaqiyatli qo'llangan. Masalan, Yodgorboydan kelgan xatlar, samovar, tegirmon va gulzor kabi detallar qahramonlarning ruhiy dunyosini ochishga xizmat qiladi. Uchinchidan, dialoglar hayotiy va tabiiy chiqqan. Har bir qahramon o'z xarakteriga mos tarzda so'zlaydi. To'rtinchidan, yozuvchi kontrast usulidan foydalanadi. Bir tomonda urushning fojiasi, ikkinchi tomonda esa insonlarning umidi va matonati tasvirlanadi. Bu qarama-qarshilik asarning ta'sir kuchini yanada oshiradi.

Badiiy adabiyotning qimmatini uning ma'lum bir davr voqealarini tasvirlashi bilangina emas, balki keyingi avlodlar uchun ham ma'naviy ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Abdulla Qahhorning "Asror bobo" hikoyasi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan asarlardan biridir. Hikoyada tasvirlangan voqealar Ikkinchi jahon urushi davriga oid bo'lsa-da, unda ilgari surilgan g'oyalar barcha davrlar uchun ahamiyatlidir. Inson qadrini ulug'lash, Vatanga muhabbat, xalq manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish, sabr-toqat va matonat kabi tushunchalar bugungi yoshlar tarbiyasida ham muhim o'rin tutadi. Hozirgi globallashuv davrida yoshlarning milliy o'zligini anglashida, tarixiy xotirani saqlashida va ma'naviy barkamol inson bo'lib voyaga yetishida bunday asarlarning o'rni beqiyosdir. "Asror bobo" hikoyasi kitobxonni insoniylik, fidoyilik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Asarda vatanparvarlik g'oyasi bevosita shiorlar orqali emas, balki qahramonlarning hayoti va faoliyati orqali ochib berilgan. Ayniqsa, Asror bobo obrazida bu jihat yaqqol namoyon bo'ladi. Asror bobo urush maydoniga bormagan bo'lsa-da, front ortida turib g'alabaga xizmat qiladi. U odamlarni birlashtiradi, urushdan qaytgan jangchilar bilan uchrashuvlar tashkil etadi, xalq qalbida g'alabaga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga harakat qiladi. Muallif shu orqali Vatanga xizmat qilish faqat qurol bilan jang qilish emasligini, balki har bir inson o'z mehnati va faoliyati bilan ham yurt ravnaqiga hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatadi. Asror boboning samovar atrofida olib borgan ma'rifiy faoliyati xalqni ruhlantirish va birlashtirish vazifasini bajargan. Bu esa uning chinakam vatanparvar inson ekanligini ko'rsatadi. Hikoyaning eng ta'sirli jihatlaridan biri inson ruhiyati tasviridir. Asror bobo va uning turmush o'rtog'i o'g'illari Yodgorboyning halok bo'lgani haqidagi xabarni eshitganlaridan keyin ham o'zlarini qo'lga olishga harakat qiladilar. Bu yerda

yozuvchi insonning ichki qudratini ko'rsatadi. Qahramonlar qayg'u va iztirobga taslim bo'lmaydilar. Aksincha, ular o'zlaridagi og'ir dardni yengishga, boshqalarni ham tushkunlikka tushirmaslikka intiladilar. Asror boboning eng muhim fazilatlaridan biri ham aynan shu matonatdir. U o'z qayg'usini yashirgan holda boshqalarga dalda berishda davom etadi. Bu holat qahramonning ma'naviy yuksakligini ko'rsatadi. Matonat masalasi hikoyada nafaqat bir insonning xarakter xususiyati, balki butun xalqning ruhiy kuchi sifatida tasvirlangan.

Abdulla Qahhor urush mavzusini yoritishda jang maydonini emas, balki urushning oddiy insonlar qalbiga ta'sirini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratadi. Yodgorboyning taqdiri orqali urushning minglab oilalarga keltirgan musibatlarini ochib beriladi. Ota-onaning farzand sog'inchi, xat kutish iztirobi, noma'lumlik azobi va qora xat fojiasi hikoyaning eng ta'sirchan sahifalarini tashkil etadi. Muallif urushni faqat tarixiy hodisa sifatida emas, balki inson taqdiriga ta'sir etuvchi ulkan fojia sifatida talqin qiladi. Shu sababli asar kitobxonda chuqur hissiy ta'sir uyg'otadi.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, "Asror bobo" hikoyasi Abdulla Qahhor ijodida inson ruhiyati eng chuqur yoritilgan asarlardan biridir. Asarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Asror bobo obrazi orqali xalqning ma'naviy qudrati va matonati ifodalangan.
2. Hikoyada inson qadri eng oliy qadriyat sifatida talqin qilingan.
3. Muallif urushning inson ruhiyatiga ta'sirini mahorat bilan tasvirlagan.
4. Asarda milliy xarakter va xalqona qadriyatlar yorqin aks etgan.
5. Hikoya bugungi yoshlar tarbiyasida muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhorning "Asror bobo" hikoyasi o'zbek adabiyotining yuksak badiiy namunalaridan biri hisoblanadi. Asarda inson qadr-qimmatini, milliy xarakter, vatanparvarlik va matonat masalalari chuqur badiiy talqin etilgan. Asror bobo obrazi orqali yozuvchi xalqning ruhiy qudratini, insonning og'ir sinovlar oldidagi bardoshini va ma'naviy yuksakligini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Ayniqsa, qahramonning shaxsiy qayg'usini xalq manfaatidan ustun qo'ymasligi uning xarakteridagi eng ulug' fazilat sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, hikoya urushning inson taqdiriga ta'sirini haqqoniy tasvirlagani, milliy qadriyatlarni ulug'lagani va yosh avlodni ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Demak, "Asror bobo" hikoyasi nafaqat o'z davrining, balki bugungi kunning ham ma'naviy ehtiyojlariga javob bera oladigan badiiy asar sifatida qadrlanishi lozim.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Qahhor A. Tanlangan asarlar. – G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. - Toshkent-2015
2. Qo'shjanov M. Abdulla Qahhor mahorati. – Toshkent-1988.
3. Sharafiddinov O. Adabiy etyudlar. – Toshkent-1986.
4. Abdulla Qahhor "Anor" hikoyalar to'plami. – Toshkent-2012